

**O‘QUVCHI YOSHLARDA INNOVATSION FIKRLASHNI
RIVOJLANTIRISHDA YOSHLAR ITTIFOQI FAOLIYATINING
O‘RNI**

Nizomiy nomidagi O‘Zmpu

Pedagogika nazariyasi va tarixi yo‘nalishi

Magistrature 2-bosqich talabasi

Mehmonova Nilufar Shuhratovna

Nilifarmehmonova8986@gmail.com

[Tel:+998995323351](tel:+998995323351)

Annotatsiya

Zamonaviy jamiyat innovatsiyalarga asoslangan ta’limda malakali mutaxassislarni tayyorlashni talab qiladi. Zamonaviy davrda jamiyat hayoti, iqtisodiyot, fan va ta’lim tizimi tubdan o‘zgarishlarga duch kelmoqda. Bu o‘zgarishlarning markazida innovatsiyalar va yangicha fikrlash madaniyati turadi. Insoniyat tarixida hech qachon bugungidek tez o‘zgaruvchan muhit bo‘lmagan. Shu sababli, har bir shaxs, ayniqsa yosh avlod, innovatsion fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lishi, yangicha qarashlarni ilgari surish va muammolarga noodatiy yechim topa bilish malakasini shakllantirishi zarur bo‘lmoqda.

Innovatsion fikrlash bugungi kunda ta’lim, biznes, boshqaruv va texnologiya sohalarida muvaffaqiyatning eng muhim omillaridan biri sifatida qaralmoqda. Innovatsion fikrlash shaxsning tafakkur madaniyatini, ijodiy salohiyatini, muammoga yondashuvini tubdan o‘zgartiruvchi omildir. Shu bois, uni o‘rganish, ilmiy-nazariy asoslarini aniqlash, ta’lim jarayoniga tatbiq

etish masalalari zamonaviy pedagogika va psixologiya fanlarining dolzarb yoʻnalishiga aylanmoqda.

Kirish. Kognitiv, kommunikativ, tashkiliy, axloqiy va oʻz-oʻziga yordam koʻrsatish tajribasi faol taʼlim usullaridan foydalanish, talabalarni shakllantirish uchun shart-sharoitlarni yaratishni oʻz ichiga olgan kompetentsiyalarga asoslangan taʼlim innovatsion taʼlim jarayonida eng samarali amalga oshirilishi koʻrsatilgan.

“Innovatsiya” atamasi lotincha “innovatio” soʻzidan olingan boʻlib, “yangilik kiritish”, “yangilash” maʼnolarini anglatadi. Shu asosda innovatsion fikrlash deganda, mavjud holatlarga yangicha, original, samarali yondashish; ilgari mavjud boʻlmagan gʻoyalarni ilgari surish va ularni amaliyotda qoʻllashga tayyor tafakkur jarayoni tushuniladi.

Psixologik jihatdan innovatsion fikrlash — bu shaxsning tafakkur faoliyatida ijodkorlik, moslashuvchanlik, tashabbuskorlik, yangilikka ochiqlik, muammoli vaziyatni tahlil qilish va original yechimlar topish qobiliyatidir. Pedagogik nuqtayi nazardan esa, innovatsion fikrlash — bu oʻquvchi yoki talabaning oʻz bilimlarini yangi vaziyatlarda qoʻllay bilishi, oʻrganilgan narsalarga yangi maʼno berishi, kashfiyotga yoʻnaltirilgan fikr yuritish jarayonidir.

Innovatsion fikrlash ijodiy fikrlash va tanqidiy fikrlash bilan uzviy bogʻliq. Ijodiy fikrlash yangilik yaratish imkonini bersa, tanqidiy fikrlash — mavjud fikrlarni baholash va tanlash imkoniyatini yaratadi. Shu jihatdan, innovatsion fikrlash bu ikki tafakkur turining sintezi boʻlib, shaxsning yangi gʻoyalarni ilgari surish va ularni hayotga tatbiq etish salohiyatini shakllantiradi.

Shuningdek, Oʻzbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi, Axborot texnologiyalari vazirligi, Oliy taʼlim, fan va innovatsiyalar vazirligi bilan hamkorlik orqali yoshlar uchun qoʻshma grantlar, texnologik yarmarkalar, “TechnoFest Uzbekistan” kabi tadbirlar tashkil etilmoqda.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, yoshlar tashkilotlari innovatsion faoliyatni rag'batlantirishda muhim ijtimoiy rol o'ynaydi. Janubiy Koreyada "Youth StartUp Agency" maktab yoshidan boshlab yoshlarni innovatsion fikrlashga tayyorlaydi. Finlyandiyada "Nuoret Innovoijat" dasturi o'quvchilarning ijodiy loyihalarini davlat tomonidan grant bilan qo'llab-quvvatlaydi. Singapurda esa "Youth Innovation Network" yoshlar uchun inkubatsiya markazlari, mentorlik tizimi va moliyaviy yordam mexanizmlarini taklif etadi. Ushbu tajribalarning umumiy jihat — yoshlarni amaliy tajriba asosida o'rgatish va ularning innovatsion g'oyalarini iqtisodiy hayotga tatbiq etish mexanizmlarini shakllantirishdir.

O'zbekiston Yoshlar ittifoqining faoliyati bu jihatdan xalqaro tajribalarga yaqinlashib bormoqda. Ammo hali ham tizimli monitoring, mentorlik dasturlari va startap loyihalarini tijoratlashtirish yo'nalishlarida takomillashtirish zarur. Xorijiy tajribada esa yoshlar tashkilotlari innovatsion faoliyatni rag'batlantirishda qo'llab-quvvatlash tarmoqlari va inkubatsion markazlar orqali muhim rol o'ynaydi. Masalan: ijtimoiy innovatsiyalar va ko'ngillilik dasturini O'zbekistonda ham tatbiq etilgan Birlashgan Millatlar Tashkiloti/Birlashgan Millatlar Taraqqiyot Dasturi (UNDP) "Social Innovation and Volunteerism in Uzbekistan" loyihasi — yoshlarni loyiha yaratish, tashabbus ko'rsatish hamda jamoat hayotiga integratsiya qilishga yo'naltirilgan. Bundan kelib chiqadiki, Ittifoq milliy sharoitga mos ravishda tashkil etilgan va xalqaro tajribalarga yaqinlashishga intilayotgan mexanizmlarga ega. Garchi Yoshlar Ittifoqi tomonidan innovatsion g'oyalarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha sezilarli tashabbuslar amalga oshirilsa-da, ba'zi muammolar ham mavjudligi aniqlanmoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, yoshlarning tashkilot faoliyatida ishtiroki hali ham past. Masalan, 14–30 yoshdagi respondentlar orasida Ittifoq faoliyatida qatnashganlar hissiati past ekanligi aniqlangan.

Mentorlarga, inkubatsion infratuzilmaga kirish imkoniyatlari hududlararo keskin o'zgaruvchan, ayrim joylarda yoshlar uchun yetarlicha vositalar taqdim etilmagan. Innovatsion g'oyalarni iqtisodiy jihatdan takomillashtirish, tijoratlashtirish va bozorga chiqarish bo'yicha qo'shimcha qo'llab-quvvatlash mexanizmlari talab qilinmoqda.

Asosiy qism. Monitoring va baholash tizimi yanada rivojlanishi, yoshlarning ehtiyojlari, qiziqishlari va bo'lajak potentsial yo'nalishlari bo'yicha ma'lumotlar tizimi takomillashtirilishi lozim. Yoshlar ittifoqining innovatsion g'oyalarni qo'llab-quvvatlashdagi imkoniyatlari nafaqat yoshlarning tafakkur doirasini kengaytirish, balki mamlakatning innovatsion salohiyatini oshirishga xizmat qilmoqda. Bu tashkilot o'quvchi yoshlarning ijodiy fikrlashini rivojlantirish, ularni amaliy faoliyatga tayyorlash va ilmiy salohiyatini oshirish yo'lida samarali platformaga aylangan. Biroq, ushbu imkoniyatlarni to'liq ro'yobga chiqarish uchun quyidagilar zarur ta'lim muassasalari bilan integratsiyalashgan innovatsion dasturlarni kengaytirish, yoshlarning startap g'oyalarini tijoratlashtirish mexanizmlarini kuchaytirish, mentorlik va innovatsion maslahat tizimini rivojlantirish, yoshlar uchun xalqaro inkubatsiya markazlari va onlayn o'quv platformalarini tashkil etish. Anglashiladiki, Yoshlar ittifoqi faoliyati yoshlarning innovatsion fikrlashini rivojlantirish, ularni ilmiy-ijodiy faoliyatga keng jalb etish hamda raqamli tafakkurga ega yangi avlodni shakllantirishda strategik ahamiyatga ega ijtimoiy-pedagogik tizim sifatida namoyon bo'lmoqda.

Yoshlar Ittifoqi O'zbekistonda yoshlar orasida innovatsion fikrlashni rivojlantirish va innovatsion g'oyalarni qo'llab-quvvatlashda muhim ijtimoiy-pedagogik institut vazifasini bajaradi. Tashkiliy, metodik va amaliy imkoniyatlari bilan u yoshlarni ilm-ijodiy faoliyatga jalb etish, ularni startap va innovatsion tashabbuslarga yo'naltirishda samarali vosita bo'lmoqda. Shu bilan birga, uning oldida turadigan asosiy vazifalar — yoshlar ishtirokini oshirish, innovatsion g'oyalarni bozorga chiqarish mexanizmlarini

kengaytirish va monitoring tizimini mustahkamlashdan iborat. Bu esa keyingi tadqiqotlar va amaliy ishlar uchun muhim yo‘nalishni belgilab beradi.

Ta’lim tizimi va yoshlar tashkilotlari o‘rtasidagi samarali hamkorlik — bugungi kunda yoshlarning ijtimoiy, intellektual va kasbiy salohiyatini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. O‘zbekiston kontekstida OYI bu borada strategik partner sifatida namoyon bo‘lmoqda, chunki uning maqsadi yoshlarni ma’naviy-intellektual jihatdan rivojlantirish, ta’lim-tarbiya tizimi bilan uzviy bog‘lanish va yoshlarni jamiyat hayotiga faol jalb qilishdan iborat. Shu bois, ta’lim muassasalari (maktab, kollej, universitet) bilan OYI o‘rtasidagi hamkorlik modelini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish magistrlik ishining muhim yo‘nalishi bo‘lishi mumkin. Ta’lim tizimi tushunchasi: Ta’lim tizimi — bu maktabdan boshlab oliy ta’limgacha bo‘lgan, maqsadga yo‘naltirilgan o‘quv-tarbiyaviy jarayonlar, institutlar, usullar, moddiy-texnik bazalar va boshqaruv elementlarini o‘z ichiga olgan murakkab tizimdir.

Yoshlar tashkiloti tushunchasi: OYI yoshlarni jamiyatga integratsiyalash, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish, tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash, ma’naviy-ma’rifiy ishlarni amalga oshirishga qaratilgan nodavlat notijorat tashkilotidir.

Hamkorlik modeli—bu model ta’lim muassasalari bilan yoshlar tashkiloti o‘rtasidagi o‘zaro bog‘lanish, resurs almashinuvi, birgalikda maqsad belgilash, muammolarni aniqlash va yechim ishlab chiqish, natijalarni baholash jarayonlarini o‘z ichiga oladi.

Mohiyati esa, OYI va ta’lim tizimi hamkorligi yoshlarni ta’lim-tarbiya jarayonida faollashtirish, ularning kasb-hunar, ijtimoiy faoliyat va innovatsion salohiyatini oshirish, o‘quv muassasalarida tashabbuskorlik, ijodkorlik va liderlik fazilatlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Misol uchun, OYI boshlang‘ich tashkilotlari maktab, kollej, oliy ta’lim muassasalari bilan birgalikda “to‘garaklar”, “debati”, “klub”larning faoliyatini tashkil etadi.

Tamoyillari uzviylik va qo'shma mas'uliyat — ta'lim muassasasi va OYI o'rtasida maqsad va vazifalar bo'yicha shartnoma asosida hamkorlik.

Ishga jalb qilishlilik — yoshlarni “faqat tinglovchi” emas, balki “faol sub'ekt” sifatida jalb etishda innovatsiya va zamonaviylik — axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, tashabbuskor yoshlar loyihalari, ijodiy formatlarni qo'llash.

Doimiy baholash va takomillashtirish — hamkorlik jarayoni har doim tahlil qilinib, qayta ko'rib chiqilib borilishi lozim.

Qamrovlilik — hamkorlik maktabdan boshlab oliy ta'lim muassasalarigacha, shuningdek qishloq hududlari, imkoniyati cheklangan yoshlarni ham qamrab olishi zarur. Quyida OYI va ta'lim tizimi samarali hamkorligini tashkil etuvchi modelning asosiy komponentlari keltiriladi. Tashkiliy-huquqiy baza OYIning huquqiy maqomi, uning ta'lim muassasalari bilan hamkorlik shakllarini belgilovchi normativ-huquqiy hujjatlar. Ta'lim muassasasi ichida OYI boshlang'ich tashkiloti faoliyatini qo'llab-quvvatlaydigan ichki nizomlar. Resurslar va infratuzilma o'quv muassasasida OYIga ajratilgan xodimlar, hamkorlikka mas'ul shaxslar. Joy, texnika, axborot-kommunikatsiya vositalari, to'garaklar, klub xonalari moliyaviy hamda moddiy-texnik resurslar (loyihalar, grantlar, ta'lim materiallari). Tashabbus va loyihalar platformasi joint loyihalar ta'lim muassasasi va OYI birgalikda yoshlar uchun intellektual, ijodiy, biznes, sport, ma'naviy-tarbiyaviy loyihalar yaratish masalan, OYI institutdagi boshlang'ich tashkiloti tarkibida “Zakovat” intellektual klubi, debat klubi, volontyorlik markazi tashkil etilgan. Axborot-kommunikatsiya va tashabbuskorlik yoshlar uchun onlayn platformalar, telegram kanallar, ijtimoiy tarmoqlar orqali axborot tarqatish tashabbuskorlikni rag'batlantirish va yoshlarning loyihaviy faoliyatini qo'llab-quvvatlash. Monitoring, baholash va takomillashtirish mexanizmi hamkorlik natijalari (masalan, yoshlarning ta'limga jalb qilinishi, tadbirlarda ishtiroki, loyiha natijasi) o'lchanishi; Yoshlar, muassasa va OYI vakillari orasida fikr-mulohaza

so'rovnomalari; masalan, bir tadqiqotda yoshlarning 72,1 % i OYI faoliyatida jalb qilinmaganini bildirgan. Olingan ma'lumotlar asosida hamkorlik modelining komponentlari takomillashtiriladi. Insonning har qanday faoliyatining yo'nalishini, xarakterini uning ko'zlagan maqsadi belgilaydi. Maqsad esa huddi qonundek ong ostiga ta'sir qilib, harakatning sifatini va usulini belgilaydi. Demak ko'rinib turibdiki boshqarish ham inson faoliyatining o'ziga xos sohasidir. Yuqoridagi fikrlarning mohiyati shundaki, boshqarishda maqsadni to'g'ri, aniq belgilash uning natijasining samarador va yuqori bo'lishiga turtki bo'ladi.

XXI-asrda axborot va bilim insoniyatning o'sishi va omon qolishi uchun juda muhim va hayotiy hissa sifatida ajralib turadi. Ta'lim nafaqat ijtimoiy taraqqiyotga erishish vositasi, balki uning bilim va tadqiqot g'ildiraklari bilan harakatlanadigan axborot davrida taraqqiyotning dvigatelidir. Sifatli ta'lim - bu talabalarning tasavvurlarini va ularning bilimlarini real dunyo muammolariga qarshi yechim topish yo'llarini o'rgatadi. An'anaviy o'qitish usullarini baholash uchun bir qator tadqiqotchilar tomonidan o'qitish samaradorligi texnikasi qo'llanilgan, agar o'qitish an'anaviy ma'ruza ko'rinishida o'tkazilsa, ko'pchilik talabalar dars mazmunini o'zlashtirmasligi aniqlandi. Bundan kelib chiqadiki, o'qitishning mavjud usullarini takomillashtirish va yangi innovatsion usullar bilan o'qitish kun talabiga aylandi. O'qitish jarayonidagi kamchiliklarni aniqlash va innovatsion o'qitish metodikasini joriy etish zaruriyati yuzaga keladi. Butun dunyo bo'ylab ta'lim xodimlari mavjud ta'lim usullarini yangilash va takomillashtirish, yangi o'qitish uslublari bilan tajriba o'tkazish g'oyasini ilgari surishmoqdalar. Pedagoglar tomonidan innovatsion o'qitish usullaridan foydalanish turli xil o'quvchilarning faoliyatini yaxshilashga yordam beradi. Hayotning har bir jabhasi, ya'ni ish, texnologiya, madaniy turmush tarzi va atrof-muhitdagi o'zgarishlarning eksponensial sur'ati talabalardan yangi bilimlarni va ko'nikmalarni talab qiladi. Bir qator oliy ta'lim muassasalarida o'qitish metodikasini joriy etish va o'zgartirishlar kiritish

bo'yicha ishlar olib borildi, bu borada ko'plab tadqiqotlar olib borildi. Ushbu tadqiqotlarda, o'qituvchi-o'quvchi interfaol usuli o'qituvchiga yo'naltirilgan yondashuvdan ko'ra eng samarali o'qitish usuli ekanligini tekshirildi. Ushbu tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, to'g'ridan-to'g'ri o'qitish bilimlarni uzatishda samarali, ammo chuqurroq tushunish, muammolarni hal qilish va ijodkorlik uchun yetarli emas. Innovatsion o'qitishning asosiy yo'nalishi har bir talabanning o'rganish va hayotda muvaffaqiyat qozonish qobiliyatiga ega ekanligiga ishonchga asoslanadi. Ta'kidlanishicha, innovatsion o'qitish usullari ko'proq tajriba beradi va talabalarga ish bilan bog'liq muammolarni hal qilishga yordam beradi. O'qituvchi har bir o'quvchini ijodiy va innovatsion o'qitish usullaridan foydalangan holda yanada sayqallanishi mumkin bo'lgan o'ziga xos shaxsiy xususiyatlarga ega deb bilishi kerak. Ta'lim jarayonidan xabardor bo'lish o'qituvchilarga o'quvchilar duch keladigan muammolarni aniqlashda juda foydali ta'lim va ta'limning innovatsion uslublarini rivojlantirishning asosiy sababi shundaki, sinfning barcha o'quvchilari shunchaki tinglash o'rniga sinfda qatnashishi va o'zaro munosabatda bo'lishidir. Shunda bilimlarning maksimal miqdori barcha talabalar tomonidan minimal vaqt va kuch bilan o'zlashtiriladi.

Xulosa.Tahlillar shuni ko'rsatadiki, Yoshlar ittifoqining faoliyati nafaqat yoshlarning siyosiy, madaniy yoki ijtimoiy faolligini oshirishga xizmat qiladi, balki ularning kreativ, tanqidiy va innovatsion tafakkurini shakllantirishda ham faol o'rin egallaydi. Bu jarayon ta'lim tizimi bilan uzviy integratsiyada amalga oshgandagina samarador natijaga erishiladi. Shunday ekan, yoshlar tashkilotlari bilan ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash, bu hamkorlikni innovatsion ta'lim texnologiyalariga asoslangan integrativ tizim sifatida tashkil etish zarur.

O'quvchi yoshlarning innovatsion fikrlashini rivojlantirish jarayonida ta'lim muassasasi — Yoshlar ittifoqi — jamiyat uchligi o'zaro uzviy aloqador tizim sifatida ishlaydi. Yoshlar ittifoqi bu tizimda ijtimoiy hamkor, motivatsion

katalizator va innovatsion loyihalarning tashabbuskori vazifasini bajaradi. Shu orqali ta'lim jarayonida o'quvchilarning individual salohiyati to'liq ochiladi, ularning yangi g'oya va tashabbuslarini ro'yobga chiqarish imkoniyatlari kengayadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.Arkipova N.I., Pomortseva I.M., Sedova O.L. Kadrovaya politika kak faktor strategicheskogo razvitiya universiteta // Vestnik RGGU. 2013.
- 2.Bozorov Y.E. O'qituvchining ijodkorligi-davr talabi. Toshkent.“O'qituvchi” 1990.
- 3.Biggs, J. & Tang, C. (2011). Teaching for Quality Learning at University. 4th ed.
Berkshire: Open University Press. – 389 b
- 4.Bekmurodov, Sh. (2019). Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Toshkent: TDPU nashriyoti. – 224 b.
- 5.Bellanca, J. & Brandt, R. (2010). 21st Century Skills: Rethinking How Students Learn. Bloomington, IN: Solution Tree Press. – 247 b.
- 6.Brown, J. S., Collins, A., & Duguid, P. (1989). Situated Cognition and the
Culture of Learning. Educational Researcher, 18(1), 32–42.
- 7.Clark, B. R. (1998). Creating Entrepreneurial Universities: Organizational Pathways of Transformation. Paris: UNESCO & IAU. – 155 b.
- 8.Dewey, J. (1916). Democracy and Education: An Introduction to the Philosophy of Education. New York: Macmillan. – 434 b.
- 9.Dodonov, V. A. (2021). Innovatsion menejment nazariyasi va amaliyoti. Moskva: Yurayt. – 388 b